



## JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA TAHDID SOLADIGAN MATERIALLARNI TAYYORLASH, SAQLASH, TARQATISH YOKI NAMOYISH ETISH JINOYATINING NAZARIY TAHLILI

Mukhtorjon SIDDIKJONOV

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17077877>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> August 2025

Accepted: 12<sup>th</sup> August 2025

Published: 30<sup>th</sup> August 2025

### KEYWORDS

jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jinoyat huquqi, materiallarni tayyorlash, materiallarni saqlash, materiallarni tarqatish, materiallarni namoyish etish, jinoyat tarkibi, huquqbuzarlik, nazariy tahlil, qonunchilik bazasi, ijtimoiy xavflilik.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, ushbu qoidalar jamiyatni turli ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishga, mamlakat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq bu boradagi huquqiy normalarni qo'llash amaliyotida bir qator muammolar ham kuzatilmoqda.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallar deganda, avvalo, zo'ravonlik va terrorizmni targ'ib qiluvchi, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat, ayirmachilik, dushmanlik yoki zo'ravonlikni qo'zg'atuvchi, shuningdek, davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi materiallar tushuniladi. Bunday materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish jamiyat barqarorligiga, tinchligiga, fuqarolarning xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi.

Jamoat xavfsizligi nafaqat xavfsizlik holati, balki jamiyat huquq tizimining ajralmas elementi sifatida ham qaraladi, unda turli tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish uchun maxsus huquq mexanizmlar ishlaydi. K.S.Belskiyning fikricha, jamoat xavfsizligi diniy, milliy va mehnat asosidagi nizolarning yo'qligi bilan tavsiflangan muhit ekanligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligi deganda, eng muhimi, jamoat osoyishtaligi va fuqarolarning ularni har qanday tahdid va shu kabi xatti-harakatlardan himoya qilishga ishonchi huquqni muhofaza qilish tizimi, birinchi navbatda, politsiya tizimi tomonidan ta'minlanadigan davlat tushuniladi<sup>1</sup>. Zamonaviy dunyoda jamoat xavfsizligi kengroq yondashuvni talab qiladi, bunda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi va texnologik vositalarning ham muhim roli bor. Chunki xavfsizlik nafaqat tahdidlarning oldini olish yoki ularga qarshi kurashish, balki ularning yuzaga kelish sabablarini bartaraf etish bilan ham chambarchas bog'liq. Shunday ekan, jamoat xavfsizligi

<sup>1</sup> Белский К.С. Политсеейское право/под ред. А. В. Куракина. М.: Изд-во «Дело и Сервис», 2004. 816 с.

davlatning majburiyati bo'lishi bilan birga, butun jamiyatning hamjihatlikdagi harakatiga asoslanishi lozim. Belskiy ta'kidlaganidek, osoyishtalik va ishonch muhitini ta'minlash – huquqni muhofaza qilish tizimining vazifasi bo'lsa-da, bu jarayonga fuqarolar faolligi, huquqiy madaniyat va ijtimoiy birdamlik ham katta ta'sir ko'rsatadi.

I.I.Veremeenkoning fikriga ko'ra, jamoat tartibi deganda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, jamoat xavfsizligi va shaxs xavfsizligini ta'minlaydigan, shu bilan jamiyat hayotining muvofiqlashtirilishi va dinamikligini kafolatlaydigan jamoat joylaridagi munosabatlar tartibi tushunilishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, jamoat xavfsizligi va shaxs xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibini o'rnatish va saqlash maqsadini tashkil etadi<sup>2</sup>. Haqiqatdan ham, jamiyat barqarorligi va dinamik rivojlanishi fuqarolarning o'zlarini xavfsiz his qilishlari va jamoat joylarida tartib-intizomning saqlanishiga bog'liq. Jamoat tartibini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash nafaqat davlat organlari, balki jamiyatning o'zi tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishi kerak. Biroq, jamoat tartibini saqlash faqatgina ma'muriy yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Unga fuqarolarning huquqiy ongi, ijtimoiy madaniyat darajasi va mas'uliyat hissi ham bevosita ta'sir qiladi. Shunday ekan, jamiyatda xavfsizlik va tartibni ta'minlash uchun profilaktik choralar, fuqarolarni huquqiy tarbiyalash, ijtimoiy birdamlik va o'zaro hurmat muhim ahamiyat kasb etadi.

I.I.Veremeenko bilan birlashib, jamoat tartibini saqlashning o'xshash maqsadlarini ko'rsatib, E.A.Cherepanov bunday faoliyatning kutilayotgan yakuniy natijasini odamlarning hayoti sodir bo'ladigan normal muhitni yaratish uchun tegishli shart-sharoitlarni ta'minlash shaklida aniqlaydi<sup>3</sup>. Mohiyatan shunga o'xshash pozitsiya A.I.Pavlovskiyning dissertatsiya tadqiqotida ham bayon etilgan<sup>4</sup>. Umuman olganda, jamoat tartibi – bu nafaqat huquq-tartibot organlari tomonidan o'rnatiladigan qoidalar tizimi, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish tamoyillariga asoslangan barqaror va uyg'un muhit yaratish vositasidir. Shu bois, jamoat xavfsizligi faqat davlatning emas, balki har bir fuqaroning ishtirokini talab qiladigan jarayondir.

Bu mavzuda jinoyat huquqi bo'yicha ilmiy ishlarda ham bayon qilingan nuqtai nazar keltirilgan. Masalan, P.F.Grishayev ijtimoiy o'zaro munosabatlar sohasida yuzaga keladigan munosabatlarning shunday tartibini jamoat tartibi deb hisoblaydi, unga ko'ra jamiyatning barcha a'zolari nafaqat huquqiy normalar, balki axloqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan qoidalarga rioya qilishlari kerak<sup>5</sup>. Demak, jamiyat barqarorligi va xavfsizligi huquqiy va axloqiy meyorlarning uyg'unlashuvi orqali ta'minlanishi lozim. Fuqarolarning huquqiy ongi qanchalik yuksak bo'lsa, ularning axloqiy tamoyillarga asoslangan ijtimoiy javobgarligi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Shu boisdan, jamiyatda jamoat tartibini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash nafaqat davlat organlari, balki har bir insonning ongli harakati natijasida yuzaga keladi.

Jamoat xavfsizligining kafolati jamiyatning barcha a'zolari tomonidan ushbu normalarga rioya qilish bo'lib, fuqarolarning xavfsiz muhitda kundalik hayotini ta'minlaydi. Fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligini, jamoat va shaxsiy tinchligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojini anglash jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, olimlarning qarashlari munozarali bo'lib, jamoat xavfsizligi sifatida jamiyat va fuqarolarni himoya qilish holatini hisobga oladi, bu faqat fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, shuningdek, ularning mulkiga zarar yetkazuvchi xavf

<sup>2</sup>Веремеенко И.И. Механизм административно-правового регулирования в сфере охраны общественного порядка: Предмет и понятие. Ч. 1 М.: Изд-во ВНИИ МВД СССР, 1981. С. 18.

<sup>3</sup>Черепанов Е.А. Общественная безопасность: теоретико-правовые и организационные проблемы ее обеспечения // Вопросы совершенствования деятельности милиции общественной безопасности. Сборник № 9. М., 2002. С. 46.

<sup>4</sup>Павловский А.И. Административно-правовые гарантии прав и свобод граждан в сфере охраны общественного порядка: дисс. ... канд. юрид. наук. М., 1998. С. 23-24

<sup>5</sup> Гришаев П.Ф. Преступления против общественной безопасности и порядка. М.: ВЮЗИ, 1959. С.4.

omillarini zararsizlantirish bilan bog'liq<sup>6</sup>. Shuni unutmash kerakki, huquqiy normalar ko'pincha inson xatti-harakatlarini majburiy tarzda tartibga soladi, axloqiy meyorlar esa ichki ong va tarbiya orqali shakllanib, ijtimoiy munosabatlarga tabiiy ravishda ta'sir qiladi.

Inson salomatligining yomonlashishiga sub'ektning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, inson hayoti va salomatligi xavfsizligini, mulk daxlsizligini kafolatlamasdan turib, jamoat va shaxsiy tinchlikka erishish qiyin. Bundan tashqari, N.V.Balandina "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarni davlatning jamiyat, alohida fuqarolar oldidagi mas'uliyati nuqtai nazaridan tahlil qilib, ular nafaqat davlatning asosiy funksiyalarining mazmunini, shu jumladan standartlar, ichki tajovuzlardan, jinoyatlar sonidan, shuningdek, tashqi tajovuzlardan himoya qilish va ta'minlash, shuningdek, huquqning funksiyalarini (xavfsizlikni o'rnatish) aks ettirishini to'g'ri ta'kidlaydi.

Qonun jamoat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga soluvchi, ya'ni, xavfsizlik standartlarini, tartibni (tartibga solish funksiyasini), shuningdek vakolatli davlat organlari tizimi yordamida o'rnatadi, jamiyatda xavfsizlik va tartibni ta'minlaydi, kafolatlaydi va himoya qiladi<sup>7</sup>.

Bir qator olimlarning nuqtai nazarlari tahlilidan kelib chiqib, D.A.Korotchenkovning jamiyatning xavfsizligini ta'minlovchi manfaatlarining ro'yxati bo'lishi zarurligi to'g'risidagi fikriga qisman qo'shilish mumkin, lekin bu masalalar qonunchilikdagi havolaki dispozitsiyalar orqali o'z-o'zidan hal bo'ladi degan fikrdamiz. Shuningdek, I.I.Veremeenkovning "jamoat va shaxs xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibini o'rnatish va saqlash maqsadini tashkil etadi" degan fikrida shaxs, jamiyat va davlatning muhim manfaatlari hisobga olinmagan, chunki ushbu manfaatlarining qondirilmashligini jamoat xavfsizligiga nisbatan jiddiy tahdid sifatida qarash mumkin.

P.F.Grishayevga ko'ra jamiyatning barcha a'zolari nafaqat huquqiy normalar, balki axloqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan qoidalarga rioya qilishlari kerakligini ko'rsatib, qaysidir ma'noda, davlatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan ishlab chiqiladigan huquqiy hujjatlarga asosiy e'tiborini qaratib, ushbu hujjatlar ya'ni qonunlar yoki boshqada huquqiy normalarning sifatini e'tibordan chetda qoldiradi.

Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligining bunday ta'rifi juda oddiy ko'rinadi, chunki hatto eng "ideal huquqni muhofaza qiluvchi organi"ning mavjudligi ham jamoat tinchligining to'liq holatini kafolatlamaydi.

Yuqorida aytilganlarning mohiyati shundan dalolat beradiki, olimlarning zamonaviy ilmiy fikrlarida "jamoat xavfsizligi" tushunchasini ta'riflashda yagona qarashlar mavjud emas.

Xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, ta'riflarning aksariyati uning turli tomonlarini va xavfsizlik hamda himoya qilish obektlarini aks ettiradi; ikkinchidan, olimlar jamoat xavfsizligining faqat bitta mazmunli jihatiga ya'ni turli tahdidlardan himoyalani darajasiga e'tibor qaratadilar; uchinchidan, ayrim olimlar milliy xavfsizlik va jamoat xavfsizligini tenglashtiradilar.

"Jamoat xavfsizligi" tushunchasini aniqlash bo'yicha ilmiy qarashlarni tahlil qilish uning o'ziga xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Birinchidan, bu yetarli xavfsizlik holati. Bu holat jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash fuqarolarning amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan huquqlarini, xavfsizlik va jamoat osoyishtaligi sharoitida amalga oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, jamoat xavfsizligi umumiy va maxsus vakolatli davlat hokimiyati organlari tizimi, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan ta'minlanadi. Shunga ko'ra, jamoat xavfsizligi davlat tomonidan ta'minlanadi va qo'riqlash obektlariga xavf

<sup>6</sup>Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства её обеспечения. М.: Щит-М, 1998. С. 16-17.

<sup>7</sup> Бalandina Н.В. Общественный порядок и общественная безопасность – зона ответственности государства перед обществом // Правовая культура. 2011. № 2. С. 67.

tug'diradigan vaziyat yuzaga kelganda, davlat hokimiyatining vakolatli organlari bunday xavflarni bartaraf etish uchun favqulodda, alohida, vaqtinchalik choralar ko'rish kerak bo'ladi. Uchinchi, jamoat xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibi mavjud bo'lganda eng samarali bo'ladi. Shuning uchun jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ko'pincha "jamoat xavfsizligi" va "jamoat tartibi" atamallari o'zaro bog'liq tushunchalar sifatida qo'llaniladi.

Jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish deganda, odamlar o'rtasida mavjud bo'lgan axloq-odob qoidalarini qo'pol ravishda buzish, fuqarolarning huquqlari, mol-mulkiga zarar yetkazish, huquqbuzarning harakatlari transport vositalarining vaqtincha to'xtatilishiga sabab bo'lishi kabilarda namoyon bo'ladi deb ta'kidlab o'tgan.

Jamoat tartibi jinoiy-huquqiy himoya obekti sifatida ijtimoiy munosabatlarning umumiyliigi, jamoat tinchligi, jamoat axloq me'yorlariga rioya qilish, shu jumladan, fuqarolarning qonunlarga bo'ysunadigan barqaror hatti-harakatlari jamoat joylarida transport vositalarining uzluksiz harakati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning uzluksiz faoliyat olib borishi tushuniladi.

M.H.Rustamboyevning fikricha, "jamoat tartibi – xavfsizlik va fuqarolarning tinchligi, o'zgalar mulkini saqlashni, jamoat va davlat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning bir me'yorda ishlab turishini ta'minlashga yo'naltirilgan odamlar o'rtasidagi axloq va huquq normalariga asoslangan munosabatlar tartibidir"<sup>8</sup>.

Mazkur munosabatlarga rioya qilinmasligi oqibatida bezorilik jinoyati vujudga keladi. Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimaslik mo'ljallanmagan joylarda spirtli ichimliklar iste'mol qilish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish, uyatli so'zlar bilan so'kinish, jamoat joylarida ochiqchasiga hojat chiqarish, yalang'och holda bo'lish, hayvonlar bilan shavqatsiz munosabatda bo'lish, o'simliklarga zarar yetkazish kabi umum e'tirof etilgan odob-axloq qoidalariga mensimaslikda ifodalanadi. Qonun mazmuniga ko'ra, aybdor o'zining harakatlari bilan jamoat tartibini buzayotganligini anglab yetishi lozim. Mazkur holatda huquqbuzarning ushbu xatti-harakatlari bilan jamoat tartibini buzish o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi shart. Sababiy bog'lanish bo'lmagan holatda qilmish shaxsga yoki mulkka qaratilgan huquqbuzarlik yoki jinoyat deb malakalanadi.

Eng avvalo, jamoat xavfsizligi va tartibiga tahdid soladigan materiallar jamiyatning barqarorligiga, tinchligiga va fuqarolarning huquq va erkinliklariga jiddiy xavf tug'diradi. Ushbu materiallarning ijtimoiy xavfiligini tahlil qilar ekanmiz, ushbu materiallar jamiyatda taranglikni oshirishi, jinoyatchilikka turtki berishi va fuqarolarning ruhiy hamda jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi degan yakdil xulosaga kelindi.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish jinoyatining oldi olinmasa, ijtimoiy xavfiligi klassifikatsiyasi quyidagicha ko'rinishda namoyon bo'ladi.

**1. Jamoat xavfsizligi uchun xavf tug'diradi:** a) "ushbu materiallar terrorism, ekstremizm va separatizm kabi xatti-harakatlarni rag'batlantirilishiga olib keladi; b) keng tarqalib yoyilib ketishi, bu materiallarni ommaviy tartibsizliklarni qo'zg'atib"<sup>9</sup>, insonlarning hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

**2. Psixologik va ijtimoiy ta'siri etadi:** a) targ'ibot va ekstremistik mazmundagi materiallar jamiyatdagi barqarorlikni keltirib chiqaradi, fuqarolarning qo'rquviga sabab bo'ladi va ularning xavfsizligiga rahna soladi; b) yoshlar va zaif ijtimoiy guruhlar bunday materiallarga nisbatan immuniteti mavjud bo'lmasligi sababli, ularning radikal g'oyalar ta'siriga tushishiga sabab bo'ladi.

<sup>8</sup> Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 5. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik.2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 207 bet.

<sup>9</sup> Захарцев С. И. Оперативно-розыскная деятельность в XXI веке / С.И. Захарцев, Ю.Ю. Игнащенко, В.П. Сальников. - М.: Норма, 2015. –С.234.

**3. Huquqiy tartibning buzilishiga olib keladi:** a) jamoat xavfsizligi va tartibiga tahdid soladigan materiallar davlatning huquqiy tizimiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarga sabab bo'ladi; b) davlat boshqaruv tizimlariga qarshi ishonchsizlikni oshishiga, konstitutsiyaviy tuzumga nisbatan tahdid olib keladi.

**4. Axborot xavfsizligiga tahdid soladi:** a) kiberhujumlar yoki axborot urushlari orqali tarqatilgan bunday materiallar jamiyatdagi noto'g'ri qarashlarni kuchaytiradi va ijtimoiy parokandalikka olib keladi; b) yolg'on axborot va dezinformatsiya odamlarda noto'g'ri tushunchalar paydo qiladi va davlat boshqaruvi tizimlariga zarar yetkazadi.

**5. Ijtimoiy xavflilikning ko'rinishlari rivojlanadi:** a) "ekstremistik va terroristik materiallar ma'lum guruhlarni boshqa fuqarolar yoki davlatga qarshi qo'zg'ash uchun ishlatiladi; b) Ijtimoiy g'araz va nizolarni kuchaytirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikka putur yetkazadi"<sup>10</sup>.

Jamoat xavfsizligi va tartibiga tahdid soladigan materiallarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, ular jamiyatda barqarorlik va tinchlikni buzadi, fuqarolarning xavfsizligi va huquqlariga jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu xavfni oldini olish uchun davlatlar samarali huquqiy mexanizmlar yaratishi, fuqarolarni xabardor qilish dasturlarini ishlab chiqishi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishi lozim.

Yuridik adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan ta'riflarning tahlilidan quyidagi mualliflik ta'rifini berish mumkin: *"Jamoat tartibi – bu fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko'rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishlari va dam olishlari uchun to'liq sharoit yaratishga, ularning sha'ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilishga yo'naltirilgan, huquqiy va ijtimoiy me'yorlar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir"*.

Shuningdek, huquqshunoslikda "jamoat tartibi"ga yaqin yana bir tushuncha – "jamoat joyi" va "huquq-tartibot" tushunchalari ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodeksining ko'pgina moddalarida "jamoat joyi" tushunchasiga duch kelamiz. Jumladan, jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish (56<sup>1</sup>-moddasi), mayda bezorilik (183-moddasi), diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (184<sup>2</sup>-moddasi), sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni olib yurish (185<sup>2</sup>-moddasi), jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish (187-moddasi), tilanchilik qilish (188<sup>3</sup>-moddasi), bayroqlar va vimpellardan g'ayriqonuniy foydalanish, plakatlar, emblemalar va ramzlarni tayyorlash, tarqatish yoki taqib yurish (203-moddasi), favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish (205-moddasi), yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (211-moddasi)<sup>11</sup> kabi huquqbuzarliklar va bezorilik oqibatida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-modda, 2 qism "ye" bandi), terrorizm (JK 155-modda), ommaviy tartibsizliklar (JK 244-modda), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 244<sup>1</sup>-modda), diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 244<sup>3</sup>-modda), bezorilik (JK 277-modda), qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JK 278-modda) shular jumlasidandir.

Biroq qonun chiqaruvchi, ayrim normativ-huquqiy hujjatlarga jamoat joylari ro'yxatlarini kiritgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonun 19-moddasida ish joylari, ko'chalar, stadionlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, jamoat transportining barcha turlari,

<sup>10</sup> Ражабова М. Диний экстремизм ва террорчилик. –Т.: Янги аср авлоди, 2000. –Б. 46.

<sup>11</sup> Oxunov Z. Jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka oid ayrim mulohazalar //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – S. 185-188.

sog'liqni saqlash, ta'lim, sport sog'lomlashtirish muassasalari, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylar, shu jumladan avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari jamoat joylari sirasiga kiritilgan<sup>12</sup>.

Yuqorida keltirilgan ish joylari, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida shaxs tamaki iste'mol qilayotgan vaqtda odamlarning mavjud bo'lmasligi bevosita o'zgarlar sog'lig'iga tajovuzni ham keltirib chiqarmaydi. Bu esa ushbu qilmishni huquqbuzarlik deb topmasligimiz uchun asos bo'ladi.

Sh.M.To'rayev ham Z.M.Oxunovlar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 56<sup>1</sup>-moddasiga quyidagi mazmundagi: "Huquqbuzarlik sodir etilayotgan vaqtda huquqbuzar yoxud huquqbuzar hamda jabrlanuvchidan tashqari ikki yoki undan ortiq shaxslar mavjud bo'lgan joy jamoat joyi hisoblanadi<sup>13</sup>", deb taklif berishmoqda

Biz ham mazkur tushunchadan kelib chiqib, kriminologiya fanini rivojlantirish maqsadida, *"Jamoat tartibiga qarshi jinoyat sodir etilayotgan vaqtda jinoyatchi shaxs hamda jabrlanuvchidan tashqari ikki yoki undan ortiq shaxslar mavjud bo'lgan joy jamoat joyi hisoblanadi"*, degan tushunchani kiritishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, ushbu tadqiqotchilarning fikrlariga qo'shilgan holda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-bo'limida "Jamoat joyi" tushunchasiga quyidagicha *"Jamoat tartibiga qarshi jinoyat sodir etilayotgan vaqtda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs va jabrlanuvchidan tashqari ikki yoki undan ortiq shaxslar yig'ilgan joy jamoat joyi hisoblanadi"*, degan ta'rifni berish lozim.

Mazkur tushunchaning qonunchilikda mustahkamlanishi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarning xatti-harakatlariga huquqiy baho berish hamda aybsiz shaxslarni javobgarlikka tortish holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, shaxsning, jamiyatning, davlatning hayotiy manfaatlarini amalga oshirishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarning mavjudligi, ular ijtimoiy imtiyozlar, konstitutsiyaviy tuzum, jamoat tartibi, shaxsiy daxlsizlik, mulk va boshqalarni o'z ichiga oladi. Biz buni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida nazarda tutilgan kodeksning vazifalarida ham ko'rishimiz mumkin.

Zero unda shunday deyilgan "Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika [Konstitutsiyasi](#) va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Xulosa sifatida bunday jinoyatlar jamoat xavfsizligi va barqarorlikka jiddiy zarar yetkazishini ta'kidlash zarur. Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin. Bu turdagi jinoyatlar zo'ravonlik, terrorizm, ekstremizm, millatlararo va diniy nizolarni keltirib chiqarishi ehtimoli bilan ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Bu jinoyatlar aholining huquqiy ongi va axloqiy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Noqonuniy materiallarning tarqalishi yoshlar va jamiyatning boshqa qatlamlari orasida huquqbuzarlik, ekstremistik qarashlar va zo'ravonlikni targ'ib qilishga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa jamoat tartibining buzilishiga, ijtimoiy ishonchsizlikning ortishiga olib keladi. Jinoiy javobgarlik jamoat xavfsizligini himoya qilish va oldini olish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bunday harakatlar uchun jiddiy javobgarlik belgilaydi. Bu choralar jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, oldini olish va jazolash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Huquq-tartibot organlari va jamiyat

<sup>12</sup>O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonuni. Elektron manbaga murojaat: <https://lex.uz/acts/1880029> (5.01.2024).

<sup>13</sup>Sh.M.To'rayev. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mag Jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikning mazmun-mohiyat. central asian journal of education and innovation. Volume 2, Issue 2, Part 2 February 2023. Page 65.

hamkorligida profilaktik ishlarni kuchaytirish zarur. Noqonuniy materiallarning oldini olish uchun huquq-tartibot organlari monitoring va nazorat choralarini amalga oshirishi lozim. Shu bilan birga, fuqarolar, ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlari olib borish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

